

Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari

2021 yilning 20 aprelida kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-682-son Qonuni mavjud.

Ushbu Qonunda normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasini, turlari, ushbu hujjatlarning o‘zaro yuridik kuchi va nisbatini belgilash, shuningdek ularni rejalashtirish, tashabbus qilish, tayyorlash, ekspertizadan o‘tkazish, kelishish, qabul qilish, e‘lon qilish, ularning ijrosini tashkil etishni ta‘minlash sohasidagi munosabatlar tartibga solingan.

Qonunning 3-moddasida Normativ-huquqiy hujjat haqida quyidagicha tarif berilgan - Normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko‘rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o‘zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir.

Shuningdek, qonunning 6-moddasida normativ-huquqiy hujjatlarning turlari bayon qilingan:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
2. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari;
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
6. Vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;
7. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Ruxsatingiz bilan Qorrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida qabul qilingan va amaliyotga joriy qilingan normativ-huquqiy hujjatlar haqida to‘xtalib o‘tsam.

Hozirgi kunga qadar Korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida 100 dan ortiq normativ huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan.

O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” Qonun

Qonun 34 moddadan iborat bo‘dib, ushbu hujjatda – “korrupsiya” atamasining tushunchasi, korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari, ushbu sohadagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, korrupsiyaga qarshi kurashuvchi vakolatli organlar va ularning vazifalari, korrupsiyani oldini olishga doir chora-tadbirlar, korrupsiyaga qarshi javobgarlik, bu masalada xalqaro hamkorlik kabi barcha muhim jihatlar qayd etilgan.

4-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari

Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: qonuniylik;

fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

ochiqlik va shaffoflik;

tizimlilik;

davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;

korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;

javobgarlikning muqarrarligi.